



Fidoyilik –
Vatanga xizmat demak!



1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz [@zarnews_uz](https://www.facebook.com/zarnews.uz) [@zarnews_uz](https://twitter.com/zarnews_uz)



KONSTITUTSIYA – MENIKI, SENIKI, BIZNIKI!

INSON HUQUQ VA ERKINLIKARINI TA'MINLASH – DAVLATNING OLIY MAQSADI



Samarqand davlat universitetida Oliy Majlis Qonunchilik palasati, viloyat, shahar va tumanlar Kengashlari deputatlari ishtirokida "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonun loyihasi mazmun-mohiyatiga bag'ishlangan targ'ibot tadbirni bo'lib o'tdi.

Dastlab Oliy Majlis Qonunchilik palasati deputati Alisher Hamroyev Konstitutsiyaviy qonun loyihasi haqida ma'ruba qildi. Amaldagi Konstitutsiyamizning moddalarini 128 tadan 155 taga, uning normalari esa 275 tadan 434 taga ko'payayotgan va amaldagi 128 ta moddadan 91 tasiga konceptual o'zgartirishlar kiritilayotgan, qo'shimchalar ekspertlar tomonidan qo'labb-quvvatlangan ta'kidladi.

Shundan so'ng Oliy Majlis Qonunchilik palasati Spikeri Nuriddinjon Ismoilov yangilanayotgan Konstitutsiyaning mazmun-mo-

hiyati va unga kiritilayotgan asosiy o'zgarishlari haqida so'z yuritdi.

- Yangilanayotgan Konstitutsiyamizda jamiyatning barcha qatlamlari manfaatlari inobtaga olingan va asosisi, "Inson huquq va erkinliklarini ta'minlash – davalatning olyi maqsadidir" degan norma belgilanmoqda, - dedi N.Ismoilov. - Jumladan, shaxsnинг ishi sudda ko'rib chiqilib, uning aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmagan bo'lsa, endilikda suhning qonuni kuchga kirgani hukmi bilan aniqlanmaguncha u aybsiz hisoblanishi mustahkamlanmoqda. Shuningdek, fugarolar sud hukmidan norozi bo'lib, Konstitutsiyaviy sudga murojaat etishlari ham yangilanayotgan Qomusimizda belgilanmoqda.

Seminar davomida mahalliy Kengashlar deputatlari Konstitutsiyaviy qonun loyihasi yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini bildirdi.

Samarqand davlat tibbiyot universiteti professor-o'qituvchilar ham shu yilning 30-aprel kuni o'tkaziladigan referendum oldidan tashkil etilayotgan targ'ibot tadbirlarida ishtirok etmoqda.

Universitetning diplodan keyingi ta'lif fakulteti xirurgiya, endoskopiya va anesteziologiya-reanimatologiya kafedrasi xodimlari hamda respublika shoshibilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Samarcand filiali xodimlari hamkorligida o'tkazilgan tadbirda yangilanayotgan Konstitutsiyamiz mazmun-mohiyatini haqida so'z yuritidi.

- Fugorlar sog'ligi muhofazasi, ularning tibbiy xizmatdan foydalinish huquqi Bosh qomus darajasida kafolatlanishi muhim ahamiyatiga ega, - deydi kafedra mudiri Nizom Qurbonov. - Yangilanayotgan konstitutsiyamizda fugorlar moddiy ahvoldan qat'i nazar, kafolatlangan be-pul tibbiy yordam bilan qamrab olinishi mustahkamlanmoqda. Bu aholi, ayniqa, sharoiti og'ir yurtdoshlarimizning sog'ligini saqlashda davlat g'armoni rillik qilishdan to'xtamasigini anglatadi. Kafolatlangan tibbiy yordamga oid normanining belgilanishi aholi, onalar va bolalar o'llimi, yuqumli kasallikkalr tahdidini bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etadi.



Samarqand iqtisodiyot va servis institutida referendumning ahamiyati, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning mazmun-mohiyatini tushuntirishga bag'ishlangan "Referendum va yoshlar" forumi tashkil etildi.

Professor-o'qituvchilar, talaba-yoshlar va jamaot tashkilotlari vakillari ishtirok etган tadbirda yangilanayotgan Konstitutsiyada o'qituvchilar va yoshlar manfaatlari himoya qilish, ilm-fan va ta'limi rivojlanirishga qaratilgan normalarning ahamiyati to'g'risida chiqishlar qilindi.

Shuningdek, forum doirasida "Rector kubogi" sport musobaqlari o'tkazilib, g'oliblar esdalik sovg'alari va pul mukofotlari bilan taqdirlandi.

AMALDAGI KONSTITUTSIYADA

28-modda.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarosi Respublika hududida bir joydan ikkinchi joyga ko'chish, O'zbekiston Respublikasiga kelish va undan chiqib ketish huquqiga ega. Qonunda belgilangan cheklashlar bundan mustasnodir.

Hech kimda uning roziligidan tibbiy yoki ilmiy tajribalar o'tkazilishi mumkin emas.

29-modda.

Har kim fikrash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasnodir.

Fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi faqat davlat siri va boshqa sirlarga taalluqli bo'lgan taqdirda gina qonun bilan cheklanishi mumkin.



KONSTITUTSIYAVIY QONUN LOYIHASIDA

32-modda.

Qonuniy asoslarda O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lib turgan har kim mamlakat bo'ylib erkin harakatlanish, turar va ya-shash joyini tanlash huquqiga ega,

bundan qonunda belgilangan chekloular mustasno. Har kim O'zbekistondan tashqariga erkin chiqish huquqiga ega, bundan qonunda belgilangan chekloular mustasno. O'zbekiston Respublikasi fuqarosi O'zbekistonga to'sqiniksiz qaytish huquqiga ega.

33-modda.

Har kim fikrash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim istalgan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega. Davlat Internet jahon axborot tarmog'ida foydalananishni ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Axborotni izlash, olish va tarqatishga bo'lgan huquqni cheklashga faqat qonuning muvoqiq hamda faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog'lig'i, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamaot xavfsizligini hamda jamaot tartibini ta'minlash, shuningdek, davlat sirlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sir oshkor etilishining oldini olish maqsadida zarur bo'lgan doirada yo'l qo'yiladi.

**KUN
HIKMATI**

Ertasini
o'ylamagan
odam bugunini
ham anglay
olmaydi



www.zarnews.uz [@zarnews_uz](https://www.facebook.com/zarnews.uz) [@zarnews_uz](https://twitter.com/zarnews_uz)



Bulung'ur tumanidagi "Maroqand sifat" mas'uliyati cheklangan jamiyati paxta va sintetik toladan ip-kalava ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. 2012-yilda tashkil etilgan korxonada Italiya, Shveysariya va Xitoyning zamonaviy texnologiyalari yordamida yiliga 7 ming tonna paxta va sintetik tola qayta ishlanadi.

- Bugungi kunda korxonamizda bo'yoq va ip-kalava sexlari bo'lib, bu yerda 563 nafar ishchi mehnat qilmoqda, - deydi sex boshligi Jasur Dadajonov. - Tayyor xomashyo Turkiya, Eron va MDH mamlakatlariga eksport qilinmoqda.

Baxtiyor MUSTANOV olgan suratlar.



O'zbekiston Respublikasi referendumini o'tkazuvchi 7-Samarqand okrug komisiyasining 6-aprel kuni o'tkazilgan navbatdagi majlisida okrug hududidagi referendum uchastkalari komissiyalari tarkibini tasdiqlash to'g'risidagi masala ko'rib chiqildi.

UCHASTKA KOMISSIYALARI TARKIBI TASDIQLANDI



"O'zbekiston Respublikasi referendumini to'g'risida"gi qonunga ko'ra, referendum o'tkazuvchi uchastka komissiyasi referendum tayinlash to'g'risidagi qaror e'lion qiliniganidan keyin okrug komissiyasi tomonidan yigirma besh kundan kechikmay besh-o'n to'qqiz nafar a'zodan, shu jumladan, komissiya raisi, rais o'rinosari va kotibidan iborat tarkibda tuzilishi lozim.

Uchastka komissiyasi a'zoliga nomzodlar fugorlarining o'zini o'zi boshqarish organlari, jamaot birlashmalari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan taklif etilib, bu nomzodlar xalq deputatlari tuman, shahar Kengashlarining majlislarida muhokama qilinadi hamda tegishli referendum o'tkazuvchi

okrug komissiyasiga tasdiqlash uchun tavsiya etildi. Viloyatimizdagi tuman va shaharlar xalq deputatlari Kengashlari tomonidan 7-Samarqand okrugiga hududlardagi uchastka komissiyalari tarkibiga taqdim etilgan nomzodlar ko'rib chiqilib, ularning tarkibi tasdiqlandi.

- Yigirma bir yoshga to'lgan, o'ta yoki olyi ma'lumotga, qoida tariqasida, saylovga hamda referendumlarga tayyorlarligi ko'rish va ularni o'tkazish borasi da ish tajribasiga ega bo'lgan, aholi o'tasida obro'e-tibor qozongan fugorlar referendum o'tkazuvchi uchastka komissiyasi a'zolari bo'lishi mumkin, - deydi 7-Samarqand okrug komissiyasi raisi o'rinosari D.Yakubanova. - Siyosiy partiyalarning a'zolari, viloyat, tuman va shahar

hokimlari, prokuratura organlari, sudlarning mansabdor shaxslari, fugorlarining tabashbuskor guruhi tarkibiga kiruvchi shaxslar komissiyaning a'zosi bo'lishi mumkin emas. Shuningdek, uchastka komissiyasi a'zolarining yarmidan ko'pinib bir tashkilotda ishlaydigani shaxslar tashkil etmasligi zarur, lekin harbiy qismilar, sanatoriylar va dam olish uylarida, kasalxonalar hamda boshqa statsiyanlar davolash muassasalarida, qamoqda saqlash va ozodlikdan mahrum qilish joylarida tashkil etilgan uchastka komissiyalari bundan mustasno. Ana shu tartib asosida referendum o'tkazuvchi uchastka komissiyalari tarkibi rais, o'rinosbar, kotib va a'zolaridan iborat tarzda ko'rib chiqilib, tasdiqlandi. Ularning umumiyy soni 11823 nafarni tashkil etadi. Komissiyalari a'zolaringan 77 foizi avval saylov va referendumlarda qatnashgan, bu borada tajribaga ega. Mutaxassislik bo'yicha 49 foizi pedagog, 11 foizi bishibot xodimlari, 9 foizi iqtisodchilar, 5 foizi muhandislari va boshqa sohalar vaqillarini iborat. Komissiyalari tarkibida xotin-qizlar ham ko'pchilikni tashkil etadi. Xususan, raislarining 277 nafari, rais o'rinosarlarining 387 nafari, kotiblarining 412 nafari yaroqlardir.

Majlisda uchastka komissiyalari faoliyatini tashkil etishda okrug komissiyasi a'zolari oldida turgan vazifalar haqida ham so'z yuritildi.

7-Samarqand okrug komissiyasi matbuot markazi.

ZAMONAVIY AVTOBUSLAR YANGI YO'NALISHLARDA QATNA MOQDA

"Maroqand trans 777" MCHJ tomonidan olib kelining "King Long" rusumli zamonaviy avtobuslar Samarqand shahridagi ayrim yo'nalishlarda harakatlana boshlagani haqida xabar tarqalgandi. Jumladan, 16,6 kilometrik masofada 70-raqamli "Sartepa mas-sivi-O'rmon xo'jaligi" yo'nalishida 10 ta yangi avtobus yo'iga qo'yildi. Yo'nalish Sartepa maskanidan boshlanib shaharning Turkiston, Amir Temur, Buyuk Ipak yo'li, Mirzo Ulug'bek, Gagarin, Navoiyshoh, Chukur yo'l (Kurchatov), Rudakiy, Shohi Zinda, Usta Umar Jo'raqulov, Zarafshon shoh, M-37 avtomobil yo'li (Katta o'zbek trakti) orqali viloyat o'rmon xo'jaligi boshqarmasigacha keladi. Sartepa maskaniga qaytishda esa Afrosiyob, Ibn Sino, Imom Buxoriy va Rudakiy ko'chalari orqali harakatlanadi.



(Davomi 3-sahifada) >>>

TA'LIMGA BARCHAMIZ E'TIBOR QARATSAK, YUKSALISH BO'LADI

Taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ushbu fikrlari bugun mamlakatimizda ta'lim tizimini isloq qilishdan ko'zlangan maqsadni bir gapda ifoda etib turibdi.

Biz keyingi yetti yil davomida mamlakatimizda ta'limni, ilm-fanni rivojlantirish uchun bir necha yillar davomida amalga oshirilmagan, bundan yuz yil avval jadid bobolar-

imiz boshlagan, ammo davom ettirishiga imkon berilma-gan ishlarga qo'l urdi.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan inson qadri ulug'lan-gan holda mamlakatimizni har tomonlama rivojlantirishning ustuvor yo'naliishi belgilangan Harakatlar strategiyasida va uning uzviy davomi bo'lgan Taraqqiyot strategiyasida ham ta'lim-tarbiya masalasi asosiy o'ringa qo'yildi. Strategiyada to'rtinchisi ustuvor yo'naliish aynan ta'lim sohasini, inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan.

O'tgan yil dekabr oyida Prezidentimizning Oliy Majlisiga va xalqimiza Murojaatnomasida ushbu yo'naliish bo'yicha navbatdagi vazifalar belgilab berildi va 2023-yil yurtimizda "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili", deb nomlandi. Garchi Murojaatnomada asosiy vazifalar qayd etilgan bo'lsa-da, davlatimiz rahbari 29-dekabr kuni yana ta'lim, ilm-fan sohasi vakillari bilan uchrashib, tizimda amalga oshirilayotgan ishlarni tahsil qildi, oldimizda turgan vazifalarga e'tibor qaratdi. Bog'chadan boshlab oly o'quv yurtlaridagi ta'lim-tarbiya jarayonigacha, darsliklardan boshlab, o'qituvchi-pedagoglarning mahorati va malakasigacha – barcha-barchasi yuzasidan fikr almashildi. Qanday yo'l tutsak, mamlakatimiz ta'lim tizimi zamon talabari-ga mos va farzandlarimiz yuksak intellektual salohiyatlari bo'lishi, ilm va ishlab chiqarish uyg'unligi ta'minlanishi bo'yicha mulohazalar bildirildi, vazifalar belgilandi.

28-fevral kuni tasdiqlangan **2022–2026-yillarda mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"**da amalga oshirishga oid davlat da'sturida Prezidentimiz oldimizga qo'yan vazifalar asosida ta'lim-tarbiya tizimini isloq qilish, ta'lim sifatini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilandi.

Aslida, bu boradagi vazifalar xalq ta'limi tizimini, oly ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyalari asosida bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Davlat dasturidagi chora-tadbirlar esa ularni to'ldiradi, yanada muammal tarzda bajarishga turki beradi.

Albatta, bugungi mukakkab davrda davlat oldida, yurt rahbari oldida mamlakat ichki va tashqi siyosati bilan bog'liq juda katta ishlardan turganda ta'limga shunchalik e'tibor qaratish shartmi, bu ish bilan tegishli vazirlik va idoralar ham shug'ullanishi mumkin-ku, degan savollar tug'ilishi tabibi. Ammo dunyoning istalgan taraqqiy etgan davlati tarixiga, bosit o'tgan yo'liga nazar tashlang, ilmga, ta'lim-tarbiyaga birlamchi masala sifatida e'tibor qaratib, yuksak natijalarga erishayotganiga guvoh bo'lasisiz. Shuning uchun ham mamlakatimizda ta'limga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda.

Men xorijiy davlatlarda bo'lganimda yoki chet mamlakatlarning ta'lim tizimini, nufuzli oly ta'lim muassasalarini faoliyat bilan qiziqqanima shunga amin bo'lganmanki, davlat taraqqiyotining asosi – ilmga asoslangan ishlab chiqarish, xalq turmush darajasini oshiradigan asosiy omil – uning ilmiy salohiyati, intellektual darajasi hisoblanadi.

Buni ko'plab Yevropa mamlakatlari yoki Sharq davlatlari misoldida ko'rishimiz mumkin.

1868-yilda Tokugava Shogunatlik davri tugab, imperator Meyji tomonidan davlat to'g'ridan-to'g'i boshqariladigan bo'ldi. Hukumat 5 moddadan iborat Imperial qasamni (Gokajo No Goseimon) e'lon qildi. Uning 5-moddasida "Imperiya farovonligini oshirish uchun ilm-fan butun dunyodan yig'ib kelinishi lozim"ligi belgilandi. Imperator Meyji va uning vazirlari Yaponiya Yevropa va AQShga o'lia bo'lib qolmasligi uchun ilm-fanni taraqqiy ettirishga o'sha paytdayot qaror qilishgan edi. Buni Yaponiya bir necha usul va bosqichlar bilan amalga oshirdi. Avvalombor dunyo davlatlaridagi sanoat, iqtisodiyot va fanni o'rganish va tadbiq etish uchun missiyalarni jo'natdi. Shulardan biri – Iwakura missiyasi edi.

Iwakura missiyasi ishtirokchilari Yaponiyaning dunyo davlatlari tomonidan tan olinishi va zamonaviy bilimlarini Yaponiyaga olib kelishda katta rol o'yanagan. Meyji tiklanish davrining ko'zga ko'ringan siyosatchilari – Kido Takayoshi, Yamaguchi Masuka, Iwakura Tomoni, Ito Hirobumi, Okubo Toshimichi ana shular jumlasidan edi. O'sha yillar moliyavi qiyinchiliklarga qaramay, bir yilda 12 ming nafr yoshlar va davlat xizmatchilari Yevropa va AQShga safarga yuborilgan.

Skandinaviya mamlakatlari tarixi va bugungi kuni misoldida ham buni ko'rishimiz mumkin.

Bugun davlatimiz rahbari ilgari surayotgan, bizning oldimizga eng muhim vazifa qilib qo'yayotgan masala ham shu – ta'lim sifatini oshirish orqali mamlakatimizna taraqqiy ettrish, xalqimiz turmush darajasini yuksaltirish. Prezidentimizning "ta'lidan o'zga najotimiz yo'q, faqat, ilm, ilm, ilm", deb jon kuydirishi boisi shunda. Bizning milliy g'oyamizning asosi ta'lim, ilmga e'tibor, xalqning intellektual salohiyatini oshirish bo'lishi kerak.

Bu vazifani faqat ta'lim muassasalarini, pedagoglar zimmasingagina yuklab qo'yib maqsadga erishib

bo'lmaydi. Buning uchun butun jamiyat, uning barcha a'zolari birdekkarakat qilishi, ta'limga e'tibor berishi, najot ilmda, ta'lim-tarbiyada ekanligini anglashi zarur.

Falsafada milliy intellekt degen tushuncha bor. Bu har bir xalqning ilmiy salohiyati bilan bog'liq. Biz ham xalqimizning ta'lim-tarbiya munosabatini o'zgartirish, baxtil va farovon yashashi ilm bilan bog'liqligini anglashi orqali milliy intellekti rivojlantirishimiz mumkin. Farzandlarimizni ilmiy qilish, zamonaviy bilimlarni o'rgatish asosiy maqsad bo'lishi lozim.

Bugun yurtimizda aholini kambag'allikdan chiqarish asosiy masalalardan biriga aylandi. Buning uchun davlat tomonidan juda katta miqdorda mablasqar tashabbusi bilan bog'liqligini anglashi orqali milliy intellekti rivojlantirishimiz mumkin. Farzandlarimizni ilmiy qilish, zamonaviy bilimlarni o'rgatish asosiy maqsad bo'lishi lozim.

Nazarimda, aholining o'ta muhtoj ijtimoiy qatlami-ni kambag'allikdan chiqaradigan omil ham ilm bo'lishi kerak. Tadbirkorlik, ishbilarmonlik ilm bilan bo'ldi. Bilimi yo'q, tafakkur qilolmaydigan, jamiyatga bugun va ertaga nima kerakligini anglamaydigan kishi qanday qilib tadbirkorlik qilsin!

Xitoyni olasizmi, Singapur yoki Malayziyami – bugun ular erishgan va dunyo havas qilayotgan o'sish, taraqqiyot zamirida ham ta'lim-tarbiyaga, ilmga e'tibor turganini ko'ramiz.

Demoqchimani, bugun mamlakatimizni taraqqiy ettirish, xalqimiz turmush darajasini oshirishning asosiy sharti ilm ekanligini barchamiz bilishimiz, shunga mos harakat qilishimiz lozim.

O'zimizning ta'lim dargohi misolida fikrlarimni davom ettirsim. Yaqin o'tmishda talabalarining umumiyligi soni 7 mingda ham yetmagan Samarcand davlat universitetida davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan oly ta'lim tizimini isloq qilinishi natijasida bugun kunduzgi ta'lim shaklida 14 ming nafarga yaqin, kechki ta'linda 1400 nafr, sirtqi ta'linda 9 ming nafar, magistratura bosqichida 773 nafr, jami 25 ming nafridan ortiq talaba tahsil olmoqda. Ularga ming nafradan ko'proq professor-o'qituvchi saboq beryapti. Bu talabalar va o'qituvchilarining ortida yana necha insonlarning hayoti, taqdiri, orzu-umidlari bor. O'z navbatida davlatning, xalqning ishonchi bor ulardan.

Avalo, barcha professor-o'qituvchilarimiz, talabalarimiz oniga najot – ta'linda, shunchaki emas, sifatli ta'limda degan tushunchani singdiriyapmiz. To'g'ri-da, ham birimiz o'zgarishni o'zimizdan, o'zimizning qarashlarimidan boshlashimiz kerak. Busiz hamma gaplarimiz gapligicha qoladi.

Biz mamlakatimiz ta'lim tizimida, jumladan, oly ta'limdagidi islohotlardan kelib chiqib, ta'lim sifati va samaradorligini oshirish uchun uchta asosiy principni ilgari suryapmiz va shu asosida faoliyat ko'rsataymiz.

Birinchi – universitet moddiy-teknika bazasini mustahkamlash, professor-o'qituvchilar va talabalariga munosib sharoit yaratish.

Yugorida ta'kidlaganimdek, oly ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysiga ko'ra, oly o'quv yurtlariga bosqichma-bosqich akademik va moliyaviy mustaqillik berilmoqda. Xususan, bizning universitetimiz ham bugun o'zini o'zi moliyalash tizimiga o'tgan. Albatta, davlat tomonidan moliyaviy ko'mak berilyapti, lekin o'zimiz topgan pulni bugun o'zimiz tasarruf etish imkoniyatiga egamiz. Biz bu mablasqar larni nimaga sarflayapmiz?

Birinchi navbatda, o'quv binolari, laboratoriylar, talabalar turarjoylari qilishga, zamonaviy o'quv jihozlari olishga sarflayapmiz. Keyingi to'rt yilda olita yangi o'quv binosi, ikkita talabalar turarjoyi qurdik. Bu binolar oddiy o'quv sinfonalarini va auditoriyalardan iborat emas, zamonaviy ta'lim kampuslari hisoblanadi. Talabalar turarjoylari ham mehmonxonadan qolishmaydi, barcha sharoit, quylayiklarga ega. Xorijlik talabalar va o'qituvchilar uchun alohida turarjoyi qurqanmiz.

Keyingi besh yilda universitetda 5 ta yangi laboratoriya tashkil etildi. Birgina 2022-yilda 3,2 million dollarlik laboratoriya jihozlari olib keldik. Universitet tarixida shu paytgacha bunday katta miqdordagi mablasqar

maqsadga erishishga qilishib oldik.

Bugungi kun professor-o'qituvchilariga qo'yiladigan yana bir talab – ular talabalariga saboq berish barobarida ilmiy tadqiqot bilan shug'ullanishi, ilmda yangilik qilish zarur.

Bizda eski tuzumdan "meros" bo'lib qolgan yomon illat mayjud. Ya'ni, oly o'quv yurti o'qituvchisi

evaziga laboratoriya olib kelinmagan.

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 24-iyulda qaroriga asosan, biologiya fakulteti hovlisida 250 o'ringa mo'ljallangan vivariy va 150 o'rinci gerbariyalar laboratoriya binolari hamda kimyo fakultetining 700 o'rinci o'quv binosi, bosh bino hovlisida 1450 o'ringa mo'ljallangan o'quv binosi va 200 o'rinci talabalar turarjisi qurildi.

Shuningdek, Abdurahmon Jomiy ko'chasida 522 o'rinci va O'zbekiston ko'chasida davlat-xususiy sherikchilik asosida 400 o'rinci talabalar turarjisi binolari qurilib foydalanishga topshirildi. Fizika, tarix, psixologiya, rus filologiyasi, raqamli texnologiyalar fakultetlari hamda to'qqiz qavatli o'quv binosi, yadro fizikasi laboratoriysi, universitetning Urgut filiali binolari rekonstruksiya, mukammal va joriy ta'mirlash ishlari olib borildi.

Joriy yilda esa biologiya fakulteti hovlisida 400 o'ringa mo'ljallangan ma'ruzalar zali binosi, oranjeruya hamda 150 o'ringa mo'ljallangan oshxona-kafelar, bosh bino hovlisida 250 o'ringa mo'ljallangan mexanika laboratoriysi binosi, xorijiy o'qituvchi va talabalar uchun 70 o'ringa mo'ljallangan xizmat uyi qurilmoqda.

Bundan tashqari, davlat-xususiy sherikchilik asosida Samarcand shahar Chuqur yo'l ko'chasida 400 o'ringa mo'ljallangan hamda Jonboy tumanidagi Agrobioteknologiyalar va oziq-ovqat xavfsizligi instituti hududida 400 o'rinci talabalar turarjolari qurilib foydalanishga topshirildi.

Shu o'rinda binol bilan bog'liq ayrim fikrlarimni bildirib o'tsam. Ayni chog'da biz universitet hududida va Universitet xiyoboni atrofida amalga oshirayotgan qurilish haqidagi ijtimoiy tarmoqlarda turlicha fikrlar bildirilmoqda. Ularga javob shuni aytmoqchimani, biz Universitet xiyoboniga zarar yetkazishni emas, uni asrab-avaylashni, bu maskanda tijorat emas, chinakam ta'lim, ilm muhitini bo'lishini istaymiz. Universitet xiyoboniga kelgan har bir inson bu joy ta'lim maskani ekanligini his qilishi, bunga guvoh bo'lishi kerak. Biz faqat shu kecha-kunduzni emas, yaqin 100-200 yilni o'yab, shunga mos rejalar qilishimiz lozim. Dunyoning mashhur universitetlari, akademiklarini ko'ring, bir necha yuz yillik tarixga ega ilm dargohlarining o'z hududi bor. Bu yerda ilm bilan, amaliy mashq'ulotlar, innovatsion ishlab chiqarish bilan shug'ulaniş mumkin.

Bizning universitet yangi emas, 600 yillik tarixga ega. Mirzo Ulug'bek oly madrasalarining vorisi bo'lgan ilm dargohimiz dunyoning TOP universitetlari qatoriga kirishi uchun harakat qilayotgan ekanmiz, Universitet xiyobonida shunday ilm-fan muhitini yaratishimiz talab ettiladi.

To'lim sifatini oshirish bilan bog'liq **ikkinci prin-sip** ta'lim jayaroniga o'sohasini yaxshi biladigan, zamonaviy ilmlardan xabardor professor-o'qituvchilarini jaib qilish. Buning uchun faqat o'z qobig'imizga o'rabi qolmasdan, xorijiy tajribasini o'rganishimiz, xalqaro talablariga mos pedagog kadrlar tayyorlashimiz kerak. Yuqorida Yaponiyani misol keltirganimdek, yoshlarini xorija yuborib, eng yaxshi tajribalarni o'rganib, ularni o'zimizning tizimda qo'llashimiz zarur. Dunyoni ko'rgan yoshlarning tafakkuri, ilmga, ishga munosabat ham o'zgacha bo'ldi. Prezidentimizning oldimizga qo'yayotgan talablaridan bittasi ham shu.

Universitetimiz bugungi kunda dunyoning 180 ga yaqin oly ta'lim muassasasi bilan hamkorlik qiladi. Ularning aksariyati bilan talabalar va pedagoglar almashish bo'yicha kelishuvimiz bor. Qo'shma ta'lim dasturlari asosida ishlayotgan nufuzli universitetlar ham kam emas.

Yaqinda Yaponiyada safarda bo'lganimizda Tottori universiteti bilan xalqaro va ilm sohalarda hamkorlik aloqalarini o'rnatish hamda professor-o'qituvchi va talabalar almashuvini yo'iga qo'yish bo'yicha kelishuvlarga erishdik. Shuningdek, universitet rahbariyati bilan muzarabalar chog'ida o'tgan yil faoliyat boshlagan Agrobioteknologiyalar va oziq-ovqat xavfsizligi institutimiz bilan mazkur dargoh o'tasida qurg'ochil mintaqalarni tadqiq qilish bo'yicha hamkorlikda ishlashga qaror qildik. Shu maqsadda Samarcandda Tottori universiteti markazini oshishga kelishib oldik.

Bugungi kun professor-o'qituvchilariga qo'yiladigan yana bir talab – ular talabalariga saboq berish barobarida ilmiy tadqiqot bilan shug'ullanishi, ilmda yangilik qilish zarur.

Bizda eski tuzumdan "meros" bo'lib qolgan yomon illat mayjud. Ya'ni, oly o'quv yurti o'qituvchisi

faqat talabalarga saboq berishi kerak. To'g'ri, nomzodlik, doktorlik dissertatsiyalarini himoya qiladi, dotsent, professor bo'ldi. Lekin o'sha fan sohasida yangilik yaratadigan, ixtiro qiladigan juda kam. Sabab – ilmidan, yaratgan yangilikidan manfaatdorligi yo'q. Faqatgina ilmiy darajasi va unvon uchun oylik maoshi ko'paydi. Shuning uchun ko'p ilmiy tadqiqotlar shu maqsad bilan cheklangan.

Endi esa ilmiy ishlarga talab o'zgaryapti. Maoshi oshishi birinchi talab, bu haqda gap-so'z bo'lishi mumkin emas. Lekin tadqiqotchi bir necha yillik izlanishlaridan so'ng nimadir yangilik, innovatsiya yaratishi va uni ishlab chiqarishga, amaliyotga joriy etilishi bilan shunga yarasha manfaat ko'ishi lozim. Sodda qilib aytganda, ilm tijoratlashishi, tadqiqotchi yaratgan ixtirosi, innovatsiyasini sotib, manfaat ko'rishi kerak. Bundan avvalo, davlat, jamiyat, qolaversa, tadqiqotchi yutadi. U izlanishlarini davom ettirib, yanayam mukammal, takomillashtagan ishlannalar yaratishiga intildi.

Uchinchi princip – talabalar bilimini adolatli, shaffof baholash. Busiz ta'lim sifatini oshirish va samaradorlik haqidagi o'ylash mantiqqa zid. Bugun o'

QO'SHINNI ISLOH QILISH MAHORATI

UNI DUNYOGA
MASHHUR QILDI



Amir Temur buyuk sarkarda, davlat arbobi sifatida Turon xalqlarini bir-lashtirish, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, harbiy nuqtai nazardan kuchli sultanat tuzishdek o'ta mas'uliyati vazifani uddaladi. Shuning uchun ham u jahon tarixida o'tgan sarkardalar safida alohida e'tirof etiladi.

Sohibqironning harbiy iste'dodi mohir tashkilotchiligi bilan namoyon bo'ladi. Masalan, Amir Temur qo'shini taktilik jihatdan o'ziga xos xususiyatlarga ega edi. Qo'shining jangovar tartibi (yasoli) yetti qismaga ajratilgan bo'lib, ayniqsa, "razvedka" a'lo darajada yo'liga qo'yilgan. Qo'shin o'nik, yuzlik, minglik hamda tuman qo'mondonlari asosida boshqarilgan. Bu esa janglarning muvaffaqiyatlari yakunlanishiga xizmat qilgan.

Har bir jangovar yurishidan oldin Amir Temur vazirlar, sarkardalar, beklar, amirlarni harbiy kengash - mashvaratga chorlagan. Ulusning turli viloyat va tumanlaridan, shuningdek, tobe yurtlardan qo'shin to'plash uchun maxsus buyruq (tunqal) e'lon qilgan. Bu buyruq kerakli joylarga yuqori mansab egasi, bosh qo'mondonning maxsus xizmatchisi (tavochisi) tomonidan zuddik bilan yetkazilgan. "Tavochi"ning zimmasiga askar jamlashdan tashqari, qo'shin qismalarining qaroghi yoki safardagi o'rni, "yasoli"ni nazorat qilish yuklatilgan.

"Tunqal"ga binoan, viloyat hokimlari va boshqa amaldorlar Amir Temur tomonidan tuzilgan ro'yxatga muvofiq o'z jangchilari, zarur ot-ulovi, qurol-yarog'i, oziq-ovqati, yem-xashagi bilan to'planish o'rni (miodig)ga o'z vaqtida, kechikmasdan yetib kelishi short hisoblangan. Har bir suvoriyga bitta yoy, 30 ta o'q, bir sadoq, bir qalqon

va bitta qo'shimcha ot ajratilgan. Yurish vaqtida har o'n jangchi bir chodir, ikki belkurak, bir kergi, bir o'roq, bir arra, bir tesha, bir bolta, 100 dona nina o'g'an.

Abdurrazzoq Samarqandiyning "Matlai sa'dayn va majmai bahrays" asarida qayd etishicha, har bir jangchi yarim man og'irligida arqon, bir dona pishiqli teri va bitta qozon olib kelishi lozim bo'lgan.

Yetarli miqdordagi lashkar (cherik) jam bo'lgach, barcha qo'shin turlari - yochilar, nayzavarlar, qorurandozlar (qorura - naft solingen idish), sangandozlar, taxshandozlar (mushak otuvchilar), manjaniq, arroda va tiri charx otuvchilar ko'rikdan o'tkazilgan. Temur qo'shinda ichiga yonuchka modda (naft solingen ko'zachalar) irliguch'i o't sochish quroli - ra'dning uzuksiz ishlabi turishini ta'minlovchi maxsus to'pchi (ra'dandoz)lar mavjud bo'lgan. Nizomiddin Shomiyning fikricha, mustahkam qal'a va qo'rg'onlari qaman qilishda, dushman kuchlari ga qirg'in keltirishda samarali qurol hisoblangan ra'dni boshqaruvchi to'pchilarning soni 10 ming kishiga yetgan.

Amir Temur shu kabi qo'shinni isloh qilish mahorati bilan buyuk sarkarda sifatida shuhrat topdi, nomi dunyoda doston bo'ldi.

Xushnud ABDULLAYEV,
Amir Temur maqbarasi mudiri.



YOQ-QO'LSIZ, AMMO BAXTLI

Har bir inson hayotida qiyinchiliklar, umidlarini so'ndirayotgan lahzalar bo'ladi... Quyidagi hayratlanlarli darajada katta iroda egalari haqidagi hikoyalar har qanday vaziyatda va hayotiy sharoitda qiyinchiliklarni yengishga kuch topish mumkinligi, astoydil istak va harakat ko'p narsaga qodir ekanligini isbotlaydi.

Australiyaning Melburn shahrida tug'ilgan Nik Vuychich kamdan-kam uchraydigan kasallik - tetraameliya sindromi oqibatida qo'l-oyoqsiz qolgan, lekin o'zini o'zi oyoqqa turg'agan va bunga boshqalarni ham undayotgan odam. Hozirda uyzuvchi va metsenat, motivatsiya beruvchi operator. "Mening vazifam - bu odamlarga o'z yo'lini topishda yordam berish", deydi Nik va yaxshi ko'rgan sport turi - serfing, suzish bilan shug'ullanadi, hattol golf va futbol o'ynashga harakat qiladi. Nik Kanae Levi bilan baxtli hayot kechirmoqda, ularning to'rt farzandi bor.

Shon Shvarner - o'pka saratonini yenggan va 7 qit'aning eng baland 7 ta cho'qqisini zabit etgan amerikalik alpinist. Shon "askin sarkomasi" 4-bosqichi tashxisidan omon qolib, Everestni zabit etgan dunyodagi yagona odam. Shifikorlar uning o'ng o'pkasida golf to'pi o'chamidagi o'sintani olib tashlagach, ikkinchi operatsiyadan so'ng bemor ikki haftadan ko'p yashamasligini aytishdi... Ammo o'n yil otib, o'pkasidan qisman foydalangan Shon kasallikni yengib, Afrika, Yevropa, Janubiy va Shimoliy Amerika, Avstraliya va Antarktidagida eng baland cho'qqilarga chiga boshladidi. Shon Shvarner dahshatlari kasallikni yengib, Everestni zabit etgan shaxs sifatida Ginessning rekordlar kitobidan joy oldi va bugungi kunda odamlarni taslim bo'lmay, saraton kasalligi bilan kurashga undamoqda.

Estar Mari Verger - niderlandiyalik aravachali tennischi, ko'p marotaba "Katta dubulg'a", paralimpiya va nogironlar aravachasida tennis bo'yicha yagona champion.

Bolaligidan sportni yaxshi ko'rар, suzish bilan faol shug'ullanardi. Biroq 9 yoshida qizga qon-tomir miyelopatiyasi tashxisi qoyildi. 10 soat davom etgan murakkab operatsiya ikki oyogi falaj bo'lgan qizning ahvolini yanada og'irlashtirdi... Bir kuni u ko'zini ochsa, qarshisida nogironlik aravachasi turibdi. "Sen mening maqsadimga to'sqinti qilolmaysan", dedi qiz aravachaga qarab. Mashaqqatli mashg'ulotlar, kuchli o'qrigalar ham uni taslim qilmadi. Basketbol va voleybolni ham qoyilmaqom o'ynaydigan qizni tennis butun dunyoga mashhur qildi. Ayni paytda u kasal bolalgara sevimli sport turi bilan shug'ullanishga yordam berish uchun xayriya jamg'armasiga asos solgan.

G.XOLDOROVA
tayyorladi.



Boysunqur saroyida devonlik mansabida bo'lgan Fasih Havofiyning "Mujma ut-taroxiv" ("Tarixiy sanalar yig'indisi") asari mavjud bo'lib, bu manba o'zining xronologik aniqligi bilan ajralib turadi. Bu asar Mavarounnah va Xuros shayxlari va adiblari haqida ma'lumot beruvchi manba hisoblanadi.

Xurosodagi ilmiy muhit Sharafiddan Ali Yazdiydek tarixchi olimning yetishib chiqishiga zamin bo'ldi. Olimning mashshur tarixiy asari "Zafarnoma" dan tashqari, astronomiya, mantiq, she'riyat va tasavvuf nazariyasiga oid 12 ta risolasi mavjud. Abdurrazzoq Samarcandiy ham Hirot ilmiy multidita yetishib chiqqan olimlardan edi. Uning mashshur asari "Matla'i sa'dayn" asaridani tashqari she'riyat va arab tilli grammatikasiga oid risolalari ham mavjud. Ushbu akademiyada faoliyat yuritgan Mirxon va uning nabirisasi Xondamir Sharq xalqlari tarixiga oid asarlar muallifidir.

Davlatshoh Samarcandiyning qayd etishicha, uch aka-uka Mirzo Ulug'bek, Ibrohim Mirzo, Boysunqur Mirzo o'rtaida doimiy ravishda o'zaro maktub yozishmalari mavjud bo'lib, ular ilm-fan, san'at va madaniyatga oldi fikrlarini o'zaro baham ko'rganlar.

Bashariyat ilm-fani taraqqiyotiga mayoq vazifasini bajargan Sharq Renessansining vorisi sifatida Markaziy Osiyoda temuriylar hukmronligi davrida ikkinchi Renessans vujudga keldi. Amir Temur va temuriy shahzodalarining ilm-fan taraqqiyotiga g'amxo'rili, ilmiy tadqiqotlarga bevosita rahbarligi tuyfali Samarqand va Hirotda ilmiy markazlari - akademiyalar vujudga keldi va ularda obil borilgan tadqiqotlar, yaratilgan asarlar salmog'i juda sermahsul.

Akram AZIZQULOV,
Akbar ALIMOV,
SamISI o'qituvchilar.

BUYUK BUNYODKOR

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarcand filialida sohibqiron Amir Temur tavalludining 687 yilligiga bag'ishlangan respublika ilmiy-amaliy konferensiysi bo'lib o'tdi.



"Sohibqiron Amir Temurning jahon taraqqiyotida tutgan o'rni" mavzusidagi tadbirda buyuk foitiying hayoti, davlat boshqaruvi, zafarli yurishlari haqida ma'lumotlar berildi.

Amir Temur xalqaro xayriya jamaot fondi raisi Muhammad Ali, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti professori Adhambek Alimbekov, Temuriylar tarixi davlat muzeysi rahbari Xurshid Fayziyev va boshqalar sohibqiron hayot yo'lli va ezuq ishlari ilmiy tahsil bilib berishdi.

Amir Temur qurban buyuk sultanat, davlatni adolat bilan boshqarish uslubi hamon ajoddolar tomonidan o'rganilmoqda. Sohibqiron davrida qurilgan va bizgacha yetib kelgan go'zal obidalari haqiqatda ilm-ma'rifat rivojlangan bir davrda qad rostlaganidan darak beradi.

Konferensiya yakunida Amir Temur xalqaro xayriya fondi tomonidan bir guruh faollarga mukofotlar topshirildi.

Fozil ABDURAPOV,
faxriy jurnalist.

SHU OYDA TAVALLUD TOPGANLAR

9-APREL

Gulnora AHMEDOVA –
1959-yilda Payariq tumanida tug'ilgan. "Elyurt humrati" ordeni sohibi.

12-APREL

MUROD Muhammad Do'st –
1949-yilda Nurobod tumanida tug'ilgan. Yozuvchi va jamaot arbobi.

Zulayho NORQULOVA – (1937-2015) Paxtachi tumanida tug'ilgan. Mehnat qahramoni.

13-APREL

Ahtam O'ROLOV – 1947-yilda Qo'shrabot tumanida tug'ilgan. Arxitektura fanlari doktori, O'zbekistonida xizmat ko'satgan yoshlar murabbiyi.

Navbatchi muharrir:

G'.HASANOV.

Navbatchi:

G.MO'MINOVA.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.

ISSN-201667X



Sotuvda
narxi kelishilgan holda

MUASSIS: Samarcand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarcand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 17 712 nusxada chop etildi. Buyurtma 186. Hajmi 2 bosma taboq, bichimni A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, **REKLAMA VA E'LONLAR:** (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarcand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ

bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: Samarcand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqt:

soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi:

soat 19:00.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skanner qiling